XALQ DEPUTATLARI ROMITAN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 27-may VII-9-89-2-40-K/25 Romitan tumani

Romitan tuman iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025 yil 07 fevraldagi 1-6-242/20-12-32/27-sonli Romitan tumani mahalliy budjetining 2024-yil yillik ijrosi, mahalliy budjetining parametrlariga 2024-yil yillik daromad va xarajatlarga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27- 126 va 148-moddalariga asosan Romitan tuman mahalliy budjetining 2024-yil yillik daromadlari 95 mlrd 147 mln.so'mni tashkil etdi, mahalliy budjetdan 256 mlrd 519 mln. so'm miqdorida xarajatlar amalga oshirildi, shundan 174 mlrd 528 mln. so'mi yoki 68 foizi ijtimoiy xarajatlarga yo'naltirildi.

Romitan tuman mahalliy budjetining parametrlariga 2024-yil yillikda daromad va xarajatlarga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi hisobotlari axborot uchun qabul qilinsin.

Bundan tashqari, respublika budjetidan maqsadli tadbirlarga qo'shimcha ajratilgan mablag'lar, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar hamda viloyat mahalliy budjeti parametrlari doirasida kiritilgan o'zgartirishlar hisobiga belgilangan tadbirlar o'z vaqtida moliyalashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27- 126 va148-moddalariga asosan tuman mahalliy budjetining 2024-yil yillik ijrosi budjet parametrlariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi hisobotini hamda mahalliy budjetning erkin qoldiq mablag'larini yo'naltirish to'g'risidagi takliflarini muhokama qilib, xalq deputatlari Romitan tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Romitan tumani iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025 yil 07 fevraldagi 1-6-242/20-12-32/27-sonli Romitan tuman mahalliy budjetining 2024-yil yillik budjet ijrosi hamda budjet parametrlariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2 Romitan tumani mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari ijrosi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar 1-ilovaga;

- Romitan tumani mahalliy budjetining 2024-yil xarajatlari ijrosi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Romitan tuman hokimining birinchi o'rinbosari (Sh.Pulotov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlarni kiritish;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

4. Romitan tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Amonov) hamda Romitan tuman soliq inspeksiyasi (B.G‘aybullayev)ga:

tuman hokimligi bilan birgalikda daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlarini so‘zsiz ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rish;

bunda, prognoz rejalarini har bir soliq turi kesimida to‘liq bajarilishini ta’minlash;

budjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy budjetga qo‘shimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish vazifasi yuklatilsin.

5. Buxoro viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil 13-mart 20-07/100/1-son Taqdimnomasini inobatga olib, xalq deputatlari Romitan tuman Kengashining 2025 yil 13 fevral VII-6-32-2-40-K/25-sonli Romitan tumani mahalliy budjetining 2024-yil yillik ijrosi, mahalliy budjetining parametrlariga 2024-yil yillik daromad va xarajatlarga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risidadagi qarori bekor qilinsin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi N.Raxmatov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi  SALOMOV FUZULI JAMOLOVICH

Xalq deputatlari Romitan tumani
Kengashining
2025-yil 27-maydagi
VII-9-89-2-40-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Romitan tumani mahalliy budjetining 2024 yil daromadlari ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

млн.сўм

Daromadlar turlari nomi	Tasdiqlangan reja	O‘zgarti-rishlar *	Aniqlangan reja	Amalda ijrosi	Farqi (+,-)	Ijrosi, foizda
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
Aylanmadan olinadigan soliq	15 046,0	-904,0	14 142,0	12 518,4	-1 623,6	88,5%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	25 049,3	4 185,0	29 234,3	26 950,0	-2 284,2	92,2%
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	1 018,0	-43,0	975,0	1 140,0	165,0	116,9%
Oxirigi iste’molchiga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	10 086,0	-168,0	9 918,0	10 720,3	802,3	108,1%
Yuridik shaxslar yer solig‘i	5 259,0	-863,5	4 395,5	5 509,3	1 113,8	125,3%
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20 073,0	536,0	20 609,0	22 268,5	1 659,5	108,1%
Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	50,0	150,5	200,5	334,9	134,4	167,0%

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq *	6 640,0	-722,0	5 918,0	5 407,1	-510,9	91,4%
Davlat boji	7 955,0	1 650,0	9 605,0	9 224,0	-381,0	96,0%
Jarimalar	0,0	0,0	0,0	246,7	246,7	0,0%
Ijara to‘lovlari	161,0	-11,0	150,0	151,1	1,1	100,7%
Dividendlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
Yig‘imlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
Boshqa tushumlar	0,0	0,0	0,0	4 670,1	4 670,1	0,0%
Daromadlar jami	**91 337,3**	**3 810,0**	**95 147,3**	**99 140,3**	**3 993,1**	**104,2%**

** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 yanvardagi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 9 fevraldagi 79-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlariga asosan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasining yilllik prognozini 40 foizga oshirilganligi inobatga olingan.*

Shuningdek, Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boqsharmasining bidirishnomalari asosida mahalliy byudjetga tushumlardan kelib chiqib, soliq turlari bo‘yicha reja ko‘rsatkichlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan.

Xalq deputatlari Romitan tumani
Kengashining
2025-yil 27-maydagi
VII-9-89-2-40-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Romitan tumani mahalliy budjetining 2024 yil xarajatlari ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

mln.so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilari nomi	2024 yil xarajatlari					
		Tasdiqlangan reja	O‘zgartish-rishlar *	Aniqlangan reja	Amalda ijrosi	Farqi (+,-)	Ijrosi foizda, %
	Romitan tumani bo‘yicha jami	**209 098,3**	**45 672,6**	**254 770,9**	**256 519,1**	**1 748,2**	**100,7%**
1	Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi	25 342,7	20 333,9	45 676,6	45 900,6	224,0	100,5%
2	Tibbiyot birlashmasi	95 670,2	17 370,9	113 041,1	112 988,7	-52,4	100,0%
3	Madaniyat bo‘limi	7 244,7	-355,1	6 889,6	7 017,2	127,7	101,9%
4	Sport bo‘limi	5 057,1	724,9	5 782,0	5 781,8	-0,2	100,0%
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 820,8	760,9	4 581,7	4 581,0	-0,7	100,0%
6	Suv xo‘jaligi tashkilotlari	1 990,6	165,9	2 156,5	2 156,5	-0,0	100,0%
7	Bandlik bo‘limi	1 823,0	301,3	2 124,3	2 124,2	-0,0	100,0%
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 044,0	149,8	2 193,8	2 239,8	46,0	102,1%
9	Soliq bo‘limi	4 670,0	552,0	5 222,0	5 218,5	-3,5	99,9%
10	Tuman hokimligi	53 053,7	4 650,6	57 704,2	59 091,8	1 387,6	102,4%
-	shundan, "Fuqarolar tashabbusi" jamg‘armasiga o‘tkazilgan mablag‘lar	19 768,0	368,5	20 136,5	20 242,7	106,2	100,5%
11	Prezident Admistratsiyasiga qarashli	748,5	9,6	758,2	764,2	6,1	100,8%

	tashkilotlar						
12	Kengash kotibiyati	271,0	53,5	324,5	338,9	14,4	104,4%
13	Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi	4 531,0	541,8	5 072,8	5 072,2	-0,6	100,0%
14	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	2 831,0	412,7	3 243,7	3 243,7	-0,0	100,0%

** Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari, tuman hokimining tegishli farmoyishlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya vazirligining bidirishnomalariga asosan kiritilgan o‘zgartirishlar.*